

## O'ZBEK XALQ DOSTONLARINING TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Toshtemirova Ma'rifatoy G'ayratbek qizi*

*IT va Ijtimoiy-gumanitar fakulteti Filologiya o'zbek*

*Til yo'nalishi 1-kurs FTO' 25\_11 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'zbek folklorida dostonlarni o'rni haqida ma'lumot beriladi. Dostonlarni og'zaki ijod mahsuli ekanligi, epik janr sifatidagi belgilari, she'riy va nasriy qismlarining uyg'unligi tahlil qilinadi. Tezisda dostonlar xalqning tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini aks etirishi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar** – doston, qadriyat, o'zbek, tarixiy, folklor, og'zaki, xususiyati, janr, nasriy, she'riy.

O'zbek xalq dostonlari xalq og'zaki ijodining eng yirik janri bo'lib, qahramonlik, ishqiy-sarguzasht va ijtimoiy-maishiy mazmunda bo'ladi. Ular qadimgi tarixiy voqealar, xalqning orzu - umidlari va or-nomus tuyg'ularini aks ettiradi. Dostonlarda nasr va nazm aralashib kelishi, baxshilar tomonida kuylanib, monumentalik va fantastik obrazlar bilan ajralib turadi.

Doston, poema – liro - epik janr: shu janrdagi badiiy asar. O'zbek xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Unda hayot voqealik keng ko'lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, persanajlar esa ko'p bo'ladi. O'zbek dostonchiligi asrlar davomida o'sib kamol topib shakli rang – baranglashib bormoqda. O'rxun – Yenisey yozuvida, Avestoyaa ayniqsa “Alpomish” “Go'ro'g'li” turkum dostonlarida o'zbek dostonchiligi taraqqiyot yo'llari, davrlarini ko'rish mumkin. Dostonlarda asosan vatanga muhabbat, mardlik, chin sevgi, vafodorlik, dushmanlarga nisbatan g'azab, do'stlik kabi oliyjanob g'oyalar taranum etadi. Og'zaki ijod namunasi bo'lgan dostonlar ko'plab variantlarga egaligi (misol uchun bugunga qadar “Alpomish” dostonining elikga yaqin, “Go'ro'g'li” turkum dostonlarining yuzga yaqin variantlari yozib olingan) jamoviyligi an'anaviyligi bilan yozma adabiyot namunasi bo'lgan dostonlardan ajralib turadi.

O'zbek xalq dostonlari mazmun – mohiyati va janr xususiyatiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi: qahramonlik dostonlar, romantik dostonlar, tarixiy dostonlar, va kitobiy dostonlar hisoblanadi.

Qahramonlik dostonlar – o'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko'pgina qatlamlar bo'lsa-da, ayniqsa, ikki qatlam, davomiy ikki bosqich - qahramonlik va romantik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi. O'zlarini yaratilish davri,

mundariyasi, g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy voqelikni tasvirlash tamoyillari bilan ham bu dostonlar bir- biridan jiddiy farq qiladi .

“Qahramonlik” termini o'zbek folklorshunosligida ikki ma'noda – keng ma'noda, umuman o'zbek eposiga nisbatan, tor ma'noda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi.

Qahramonlik dostonlari patriarxal – urug'chilik munosabatlarini, ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik hayot tarsi bilan mahkam bog'liqdir. Bunday dostonlar xuddi shu turmush tarzining ifodasi sifatida patriarxal – urug'chilik jamiyatining so'nggi bosqichlarida yoki ilk feodalizm davrida turli urug'lar o'rtasida nizolar davom etayotgan va ular muayyan hududlarga joylashayotgan hamda yagona xalq sifatida uyusha boshlagan davrlarda yaratilgan. Misol uchun, “Alpomish”, “Rustamxon”, “Yodgor” kabi dostonlar kiradi.

Ikkinchi turi esa romantik dostonlar hisoblanadi. Romanik dostonlar o'zbek xalq baxshilari repertuaridagi dostonlarning eng katta qismidir. “Xalq romani”, “romanik” terminlari turkologiyasida shartli ravishda qabul qilingan bo'lib, ular og'zaki yaratilgan, ba'zan kelib chiqishi jihatidan kitobiy manbaga ega bo'lgan va og'zaki ijro etilgan muayyan dostonlar guruhini bildiradi. Romanik dostonlarning sujeti sxemalari nihoyatda bir- biriga o'xshash bo'lib, odatda, qahramon g'oyibona oshiq bo'lgango'zalni izlab safarga otlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarni, mashaqqatli to'qnashadi, barcha qiyinchiliklarni yengib, o'z maqsadiga erishadi. Bunday turkumga “Ravshan”, “Oysuluv” kabi dostonlar kiradi.

Tarixiy dostonlar . Tarixda bo'lib o'tgan voqea hodisalar, ayrim tarixiy shaxslar faoliyatida asosida yaratilgan tarixiy dostonlar baxshilar repertuaridan boshqa dostonlarga nisbatan juda kam o'rin egallaydi. Misol uchun, “Tulumbiy”, “Shayboniyxon” kabilarni kiritish mumkin.

Kitobiy dostonlar qahramonlarning sevgi kechinmalariga alohida e'tibor beriladi. Qahramonlar yor uchun ajoyib- g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechiradi., o'z ahvolidan fig'on chekadi, uzun monologlarda hijron azobidan zorlanadi, g'ayritabiiy kuchlarga yolvoradi, ya'ni qahramon kechinmalari ba'zan diniy , ba'zan o'ta sentimental mohiyat kasb etadi. Misol uchun, “Farhod va Shirin” , “Layli va Majnun “ , “ Rustami Doston” kabi dostonlar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq dostonlarining turlari va o'ziga xos xususiyatlari xalqning milliy o'zligini, tarixiy taffakurini va estetik didini yaqol aks ettiradi. Ular o'zbek folklorining eng yirik va mukammal janri sifatida muhim manba bo'lib qolaveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Sarimsoqov.B.// O'zbek xalq og'zaki ijodi //- Toshkent . Fan. 2004
2. Oxunjon .S // O'zbek xalq og'zaki ijodi // Musiqa nashriyoti// Toshkent // 2010
3. Rahmonov . V. // O'zbek xalq iboralari va nutq madaniyati//- Toshkent; Ma'naviyat , 2012